O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI DIREKTOR VA MUTAXASSISLARINI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
_____ D.Z.Dustov
“09” yanvar 2026 yil

“MAKTABGACHA VA MUSIQIY TA’LIM” KAFEDRASI

“BAYRAM VA TADBIRLARNI TASHKIL ETISH”

o‘quv modulidan

O‘QUV-USLUBIY MAJMUASI

Ta’lim turi:	**Malaka oshirish**
Malaka oshirish muddati:	**1 oy (100 soat)**

TOSHKENT 2026

Annotatsiya: Majmuada bayram va tadbirlarni rejalashtirish, ssenariy tuzish, musiqiy repertuar tanlash, sahnalashtirish jarayoni hamda bolalarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olish yo‘llari ko‘rsatib berilgan. Shuningdek, musiqa rahbari, tarbiyachi va boshqa pedagoglar o‘rtasidagi hamkorlikning ahamiyati ochib berilgan.

Tuzuvchilar: MTTDMQTMOI “Maktabgacha va musiqiy ta’lim” kafedrasi katta o‘qituvchisi M.Qurbonova

Taqrizchilar: Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti “Maqom xonandaligi” kafedrasi dotsenti Sh.B.Matyakubov

MTTDMQTMOI Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi bo‘shlig‘i D.K.Amanova

Malaka oshirish toifasi: Maktabgacha ta’lim musiqa rahbarlari

Maktabgacha ta’lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti Ilmiy kengashining 2026-yil 29 yanvar №1-sonli qarori bilan ma’qullangan.

MUNDARIJA

I.	**KIRISH**	**4**
II.	**TEXNOLOGIK XARITASI**	**5**
III.	**MA’RUZA MATN VA O‘QUV MATERIALLAR**	**7**
IV.	**O‘Z-O‘ZINI TEKSHIRISH UCHUN TEST SAVOLLARI**	**8**
V.	**MODUL YUZASIDAN MALAKA ISHI MAVZULARI**	**23**
VI.	**TARQATMA MATERIALLAR**	**25**
VII.	**ATAMALAR IZOHLI LUG’ATI**	**34**
VIII.	**ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO‘YXATI**	**36**

KIRISH

Ma’lumki, mamlakatimizda maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, ilg‘or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta’limning innovatsion tizimini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta’limni rivojlantirishning 2030 yilgacha mo‘ljallangan konsepsiyasida, “Maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-estetik va musiqiy tarbiya hamda ta’lim darajasini oshirish”, alohida uqtirilgan. Bunga esa maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy didni, yuksak estetik dunyoqarash va tafakkurni oddiy, kichik hajmli bolalar folklor qo‘shiq va kuylari, shuningdek, kompozitorlik ijodi namunalarini singdirib borish orqali erishish mumkin.

Ushbu o‘quv majmua O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” 595-sonli qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-231-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-dekabrdagi 867-sonli “Maktabgacha va maktab ta’limi xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-iyuldagi “Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining kasbiy standartini tasdiqlash to‘g‘risida” 423-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2024-yil 1-avgustdagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tizimi xodimlari asosiy lavozimlarining malaka tavsiflarini tasdiqlash to‘g‘risida” 238-sonli buyrug‘i, 2025-yil 29-avgustdagi “Maktabgacha ta’lim tashkiloti va pedagoglarning ish hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 323-sonli buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida tuzilgan bo‘lib, zamonaviy talablar asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlari musiqa rahbarlari uzluksiz kasbiy rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirish va kasbiy kompetentligini muntazam oshirishni nazarda tutadi.

Jumladan, ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta’lim sifatini oshirish, Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida keng qo‘llaniladigan zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish, Maktabgacha ta’lim tashkilotlariga pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmini takomillashtirishdan iborat dolzarb vazifalar qo‘yildi.

“Bayram va tadbirlarni tashkil etish” o‘quv moduli maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi turli yosh guruhi bolalariga ta’lim va tarbiya berishda hamda bayram ertaliklarini tashkil etishda musiqiy ta’limning ahamiyatli tomonlarini ochib beradi. Bundan tashqari maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning imkoniyatlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda ta’lim va tarbiya, rivojlantirish vazifalarini aniqlashtiradi, mazmuni va mohiyatini yoritadi.

Bolalarga estetik tarbiya berishda musiqaning o‘ziga xos o‘rni bor. Maktabgacha ta’lim tizimida berilayotgan musiqiy ta’lim va tarbiya bolalarning iqtidorini rivojlantirish bilan birgalikda ularning barkamol bo‘lib voyaga yetishlarida munosib o‘rin tutadi.

Modulning maqsadi: Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi turli yosh guruhi bolalariga ta’lim va tarbiya berishda hamda ertaliklarni tashkil etishda musiqiy ta’limning ahamiyatli tomonlarini o‘rgatishdan iborat.

Kutilayotgan natijalar: Tinglovchilar “Bayram va tadbirlarni tashkil etish” modulini o‘zlashtirish jarayonida quyidagi bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarga ega bo‘ladilar:

- Bolalar bilan musiqiy ijrochilik faoliyatini amalga oshirish orqali ularda musiqiy madaniyatni shakllantirish bo‘yicha bilimlarga ega bo‘ladilar;
- Bayram ertaliklarini tashkil etishning ahamiyati haqida bilimlarga ega bo‘ladilar;
- Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bayram ertaliklarini tashkil etish usullari haqida bilimlarga ega bo‘ladilar;
- MTT tarbiyachisining musiqa rahbari bilan hamkorlikda tashkil etiladigan bayram ertaliklarini hamkorlikda olib borish bo‘yicha ko‘nikma va malakaga ega bo‘ladilar;
- O‘zbek milliy qadriyatlari, folklor qo‘shiqlari va bolalar o‘yinlari orqali ma’naviy va jismoniy tarbiya berish tamoyillarini amalda qo‘llay olish ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladilar.

TEXNOLOGIK XARITASI
(240 daqiqa)

Vaqt	Mavzu	Jarayon, metod	Resurs, tarqatma materiallar	Tinglovchining faoliyati
80 daqiqa	**1 mavzu: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bayram va tadbirlarni tashkil etishning maqsad va vazifalari**			
20 daqiqa	Bayram va tadbirlarni tashkil etish orqali bolalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish	Ma'ruza, nazariy tahlil	Slaydlar taqdimoti	Bahs-munozarada faol ishtirok etadi
20 daqiqa	Bolalarning musiqiy, badiiy va sahnaviy qobiliyatlarni rivojlantirish	Nazariy tahlil, suhbat va munozara	Tarqatma materiallar (nota va musiqiy asarlar)	Asarlarni qiyosiy tahlil qiladi
40 daqiqa	Jamoada ishlash, o'zini erkin tutish va muloqot madaniyatini mustahkamlash	Nazariy tahlil, fikr va mulohaza	Slayd taqdimoti	Bahs-munozarada faol ishtirok etadi
80 daqiqa	**2-mavzu: Bayram va tadbirlarni tashkil etish bosqichlari** ***(2 soat amaliy mashg'ulot)***			
40 daqiqa	Bayram va tadbir mavzusiga mos qo'shiq va kuylarni tanlash	«Aqliy hujum» metodi	Tezkor savol – javob	Bahs-munozarada faol ishtirok etadi
20 daqiqa	Bayram va tadbirlarda harakatli o'yinlar va raqslarni uyg'unlashtirish	Ijodiy jarayon, Ijodkor musiqa rahbari	Tarqatma materiallar (nota, cholg'ular va ularning rasmlari)	Asarlarni qiyosiy tahlil qiladi
20 daqiqa	Bolalarning individual qobiliyatlarini inobatga olish	Ijodiy jarayon	Slayd taqdimoti	Bahs-munozarada faol ishtirok etadi
80 minut	**3-mavzu: Bayram ertaliklari uchun musiqiy o'yinlar** *(2 soat amaliy mashg'ulot)*			
20 daqiqa	Bayram ertaliklari uchun musiqiy o'yinlarni tashkil etish bosqichlari	Jarayon metodi	Slaydlar taqdimoti	Bahs-munozarada faol ishtirok etadi
60 daqiqa	Musiqiy o'yinlar yaratish	Ijodkor musiqa rahbari	Tezkor savol – javob	Mavzuni o'zlashtiradi

1-MAVZU: MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA BAYRAM VA TADBIRLARNI TASHKIL ETISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

(2 soat nazariy mashg‘ulot)

1. Bayram va tadbirlarni tashkil etish orqali bolalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish.
2. Bolalarning musiqiy, badiiy va sahnaviy qobiliyatlarni rivojlantirish.
3. Jamoada ishlash, o‘zini erkin tutish va muloqot madaniyatini mustahkamlash.

Tayanch so‘zlar va tushunchalar: bayram ertaliklar, nota, repertuar, kuylash, uslub

1.Bayram va tadbirlarni tashkil etish orqali bolalarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmatni shakllantirish.

Musiqa madaniy hayotimizda keng o‘rin tutgan, inson shaxsiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadigan san’at turidir. Har bir insonni ma’naviy shakllanishida oilani, ta’limni, jamiyatni ahamiyati katta. Chunki insonni insoniylik

xususiyatlari jamiyatda tarkib topadi. Yosh avlodni kamolot sari yetaklashda tarbiyani ko‘plab omillari qatori musiqa tarbiyasi alohida o‘rin tutadi. Musiqa tarbiyasi estetik tarbiyaning asosiy va murakkab qirralaridan biri bo‘lib, insonni atrofdagi go‘zal narsalarni to‘g‘ri idrok etishga va qadrlashga o‘rgatadi. Musiqa inson ruhiyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lib, uni nafosat olamiga olib kirish va axloqiy g‘oyaviy tarbiyalashni muhim vositasidir. Musiqa insonni yuksak did bilan qurollantiradi va unga ma’naviy ozuqa beradi.

Demak, musiqa san’ati va ta’lim-tarbiyasi kishidagi insoniy fazilatlarni rivojlantirib, ruhiy poklanish va yuksalishga da’vat yetadigan, insonning ichki olamini boyitadigan, iymon-e’tiqodini, irodasini mustahkamlaydigan, ijodini uyg‘otadigan qudratli botiniy kuch – ma’naviyatning yuksalishini ta’minlaydi. Musiqa yordamida uning badiiy idroki o‘sib, hissiyotini yanada boyitib boradi. Bolalarda musiqaviy idrokni o‘stirmay, ularning musiqaga mehr-muhabbatini yetarli darajada qiziqtirmay turib, har tomonlama jismoniy boy, ma’naviy va qat’iy axloqiy sifatlarni tarbiyalab bo‘lmaydi.

Musiqa san’ati estetik tarbiyaning muhim omili sifatida garmonik rivojlangan shaxsning kamolotga erishishi uchun unga muhim ta’sir etuvchi jarayondir. MTTda musiqa mashg‘ulotlarini qiziqarli tashkil etish, yosh avlodning ichki dunyosini boyitish va san’atni to‘g‘ri tushunishidagi yagona yo‘ldir. Musiqa ayni bir vaqtning o‘zida ham fan ham san’atdir. Musiqaviy estetik tarbiya masalalari bugungi kunda muhim ahamiyatga ega. Bola shaxsining shakllanishi jarayonida uning estetik madaniyat asosidagi har tomonlama badiiy rivojlanishi pedagogdan jiddiy mas’uliyat talab qiladi. Chunki maktabgacha yoshdagi bolalardagi musiqa tarbiyasi bolaning mehnatga, Vatanga va burchga muhabbatni shakllantiradi, tarbiyalaydi, hamda uning butun hayoti mobaynida unga hamroh bo‘lib boradi. Hozirgi kun talabi maktabgacha ta’lim tashkilotlari oldiga musiqiy-estetik tarbiya berish borasida aniq vazifalarni qo‘yadi:

- bolalarni tabiat go‘zalliklarini, badiiy asarlarni idrok etish;
- estetik did va hissiyotni shakllantirish;
- hayotda go‘zallik tushunchasini to‘liqligicha anglashni o‘rgatish;
- bolalarga badiiy ijodkorlikni shakllantirish;
- bolalarda go‘zallikni o‘z hayotlariga, o‘z faoliyatlariga olib kirishni o‘rgatish va hokazo.

Nafosat tarbiyasining mazmuni serqirra bo‘lib, musiqiy tarbiya eng asosiy o‘rinni egallaydi. Musiqiy ta’limning oliy maqsadi: yosh avlodni milliy musiqa merosimizga vorislik qila oladigan hamda musiqa boyligini idrok eta oladigan, yetuk, barkamol, madaniyatli, nafaqat o‘z milliy an’analarini, balki boshqa millatlar madaniyatidan boxabar va bu an’ana, madaniyatlarini hurmat qiladigan qilib voyaga yetkazishdan iboratdir. Bunda nafosat tarbiyasining ahamiyati benihoya kattadir. Bayram ertaliklari estetik ya’ni nafosat tarbiyasini berishda muhim tadbirlardan biridir. Ertaliklar maktabgacha ta’lim tashkiloti hayotining eng muhim va tarkibiy qismiga aylangan bo‘lib, tantanavorlik, xursandchilik va shodlik holatini vujudga keltiradi, bolalarning badiiy didini tarbiyalaydi. Bayram ertaliklaridan maqsad, bolalarni nafosat olamiga olib kirish, ularda ajoyib yorqin taassurotlar qoldirish va shodlik baxsh etishdan iboratdir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida nishonlanadigan har bir bayramning o‘z ma’nosi va alohida xususiyati bor. Masalan, 1-sentyabrda nishonlanadigan Mustaqillik bayramida vatanni sevish va e’zozlash, unga munosib farzand bo‘lib yetishish, uning yutuqlaridan faxrlanish hissi tarbiyalanadi. Bayramda bolalar O‘zbekiston Respublikasi madhiyasini kuylaydilar. Ertalikdagi o‘yinlar, sahna ko‘rinishlarida xalqimizning erishgan yutuqlari, mehnatning insonga quvonch baxsh etishi odamlarning bir-biriga mehr-oqibati, qadriyatlarimiz ko‘rsatilishi kerak. Musiqa rahbari bayram dasturini tuzishda ijodiy yondashib, zamonaviy bolalar qo‘shiqlari bilan bir qatorda, o‘zbek xalq qo‘shiqlarini ham dasturga kiritishi lozim.

Kichik, o‘rta, katta va tayyorlov guruhlarida bayram ertaliklari MTTda olib boriladigan barcha bayram ertaliklari vositasida oliyjanob fazilatlar yosh avlodga maktabgacha yoshdan boshlab shakllantiriladi. Bayram ertaliklari jarayonida bola hayotiy voqelikni musiqaviy obrazlar orqali idrok etib boradi. Bolalar yoshiga xos musiqa asarlari kichkintoylarda unutilmas taassurot qoldiradi, ularni ruhiy dunyosini boyitadi.

2.Bolalarning musiqiy, badiiy va sahnaviy qobiliyatlarni rivojlantirish.Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi musiqaviy tarbiya badiiy adabiyot va tasviriy san’at bilan uzviy bog‘langan holda amalga oshiriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga estetik tarbiya berishda musiqaning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Musiqa – bolalar estetik tarbiyasida asosiy o‘rin tutadi.

2. Bolalar musiqiy estetik madaniyatini shakllantirish muammosi asrlar davomida ilm ahli uchun dolzarb muammo bo‘lib kelgan. Chunki jamiyat ma’naviyatini shaxs ma’naviyatining yuksakligi, qolaversa, bolalarning musiqiy estetik madaniyatning shakllanganlik darajasi tashkil etadi.

3. Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida musiqa mashg‘ulotlari imkon darajasida tashkil yetilgan, ammo kichik yoshdagi bolalarni estetik tarbiyalash uchun davr talabi asosida musiqa mashg‘ulotlarini yanada takomillashtirish va qo‘shiq o‘rgatishda yangi texnologiyalardan foydalanishga undamoqda.

4. Bolalar ma’naviy-estetik tarbiyasini yanada takomillashtirish uchun mo‘ljallangan tadbirlarda qo‘shiq va raqslardan ko‘proq foydalanish lozim.

5. Bolalarning musiqaga qiziqishini oshirish maqsadida muntazam tashkil etiladigan tadbirlarga o‘zgacha ruh bag‘ishlash kerak.

6. Demak, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida musiqa vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarni musiqiy madaniyatini shakllantirishdan pirovard maqsadimiz xalq farovonligi, yurt tinchligi, Vatan taraqqiyotini o‘zida mujassam qilgan Ozod va obod Vatan quradigan barkamol shaxslarni tarbiyalashdan iborat.

Mamlakatimizda olib borilayotgan barcha iqtisodiy, siyosiy jarayonlarning asosida ham ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy va tarbiyaviy ishlarning hamohangligini kuzatish mumkin. Shu jihatdan olib qaralganda, madaniyat va san’atga aloqador bo‘lgan sohalarda yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, komil inson kabi tushunchalar talqini muhim ijodiy va tashkiliy jarayonlarni qamrab oladiki, unda madaniyat xodimlari, san’at sohasi ustalari zimmasiga katta mas’uliyat yuklanadi. Aholini ma’naviy kamol toptirish, madaniy bilimlarini oshirish, ularni pok va halol yashashga chaqirish, mustahkam e’tiqodga ega bo‘lish kabi xususiyatlarni shakllantirishda tadbirlar tashkilotchilariga alohida bilim, ko‘nikma, mahorat va mehnat talab qilinadi.

Tadbirlarni tashkil etishdan asosiy maqsad — milliy va dunyo madaniyatlarining eng yaxshi namunalarini keng targ‘ib qilish va ommalashtirish, o‘sib kelayotgan

avlodni, zamonaviy yoshlarni ma’naviy tarbiyalash, millatiga, tarixiga, insoniyatga bo‘lgan hurmatni uyg‘otish va saqlash, ma’naviy-ma’rifiy islohotlarda faol ishtirok etishdir. Zotan, xalqlarning o‘ziga xosligi va betakrorligini saqlash, tarixan shakllangan qadimiy milliy madaniyatlar, san’at va xalq ijodiyoti, yuz yillar davomida tarkib topgan milliy an’ana va urf-odatlarning o‘zaro yaqinlashuvi va bir-birini boyitishi uchun, dunyoda yashayotgan turli millat va elat vakillari o‘rtasida o‘zaro hurmat muhitini qaror toptirish uchun tadbirlarning ahamiyatini alohida ta’kidlash maqsadga muvofiqdir. Tadbirlarni tashkil etishning bosh maqsadi tadbirlarni to‘g‘ri, maqsadli tashkil etishga o‘rgatishdir. Undan tashqari, tadbirlar milliy qadriyatlar, an’analar, urf-odatlar asosida vujudga kelgan bo‘lib, har bir odamni mehr-shavqatli, mehr-oqibatli bo‘lishiga da’vat etadi, yer yuzida barqarorlik, birdamlik va ahillik tabiatini uyg‘otadi, xalqlarning madaniyatlarini o‘zaro birlashtiradi, boyitadi, insonlarning millati, tili va dinidan qat’iy nazar, xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradi. Bir so‘z bilan shuni aytish mumkinki, shaxsning ma’naviy yuksalishi uning ijtimoiy faolligini oshiradi va jamiyat taraqqiyotini tezlashtiradi.

3.Jamoada ishlash, o‘zini erkin tutish va muloqot madaniyatini mustahkamlash.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarda jamoada ishlash, o‘zini erkin tutish va muloqot madaniyatini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki maktabgacha yosh davri bolaning ijtimoiylashuvi, tengdoshlari bilan munosabat o‘rnatishi hamda shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi bosqichdir. Ushbu davrda bolalar o‘zaro muloqot qilish, fikr almashish, jamoa qoidalariga rioya etish kabi muhim ijtimoiy ko‘nikmalarni egallaydi. Jamoada ishlash bolalarda hamkorlik, o‘zaro yordam, mas’uliyat va intizom kabi sifatlarni rivojlantiradi.

MTTda tashkil etiladigan bayramlar, sahna ko‘rinishlari, jamoaviy o‘yinlar va tadbirlar jarayonida bolalar birgalikda harakat qilishni, umumiy maqsad sari intilishni o‘rganadilar. Bu jarayonda har bir bola o‘z vazifasini anglaydi, tengdoshlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga va jamoa manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yishga odatlanadi. O‘zini erkin tutish ko‘nikmasi bolalarda ishonch va dadillikni shakllantiradi. Sahnaviy chiqishlar, she’r aytish, qo‘shiq kuylash va rolli o‘yinlar orqali bolalar tomoshabinlar oldida chiqish qilishga, hayajonni yengishga va o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon etishga o‘rganadilar. Bu esa bolalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlab, ularni faol va tashabbuskor shaxs sifatida tarbiyalashga

xizmat qiladi. Muloqot madaniyatini shakllantirish jarayoni ham MTT faoliyatining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Bolalar muloqot jarayonida tinglash, so‘zlash, savol berish va javob qaytarish qoidalarini o‘zlashtiradilar. Tarbiyachi rahbarligida olib boriladigan mashg‘ulotlar va tadbirlar bolalarda nutqni to‘g‘ri, ravon va odob bilan qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shuningdek, bolalar tengdoshlari va kattalar bilan muloqotda bo‘lish orqali hurmat, muomala madaniyati va xushmuomalalik kabi axloqiy fazilatlarni egallaydilar.

Pedagog bolalar yoshiga qarab turli xil jamoaviy faoliyat shakllarini tashkil etadilar. Har bir shakl bolalarning o‘ziga xos ehtiyojlariga va rivojlanish bosqichiga mos keladi. Jamoaviy faoliyat bolalar ijodiy rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Guruhda ishlash bolalarda o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi, ijtimoiy munosabatlarni rivojlantiradi va hissiy intellektni mustahkamlaydi. Bolalar birgalikda ishlash orqali o‘z-o‘zini baholash, boshqalar bilan do‘stona munosabatlar o‘rnatish va ijtimoiy mas’uliyatni his qilishni o‘rganadilar.

Nazorat savollari

1. Bolalarga estetik tarbiya berishda musiqaning qanday ahamiyati bor?
2. Maktabgacha ta’lim tashkilotida bayram ertaliklari va o‘yin kulgi kechalarini tashkil qilishda nimalarga e’tibor qaratish muhim?
3. Bayram ertaliklari ssenariylari qanday tuziladi?
4. Bolalarning musiqiy va ijodiy qobiliyatlari rivojlanishida bayram ertaliklarining qanday o‘rni bor?

2-mavzu: Bayram va tadbirlarni tashkil etish bosqichlari

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

1. Bayram va tadbir mavzusiga mos qo‘shiq va kuylarni tanlash.
2. Bayram va tadbirlarda harakatli o‘yinlar va raqslarni uyg‘unlashtirish.
3. Bolalarning individual qobiliyatlarini inobatga olish.

Tayanch so‘zlar va tushunchalar: bayram ertaliklar, nota, repertuar, kuylash, uslub

1.Bayram va tadbir mavzusiga mos qo‘shiq va kuylarni tanlash. Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ertaliklar va bayramlar davlatimizning muhim voqealari bilan bog‘liq tarzda tashkil etiladi. Turli xil bayramlarga bag‘ishlangan ertaliklarda bolalar mamlakatimizning muhim sanalari va bayramlari bilan tanishib boradilar.

Bunday ertaliklarda musiqa asosiy o‘rinda turadi. Ushbu ertaliklarda bolalar qo‘shiq kuylaydilar, raqsga tushadilar, bolalar musiqiy cholg‘ularida ijro etadilar. Bunday ertaliklar uchun ataylab ssenariylar yoziladi. Ssenariylar mavzusi bayram ruhiga yaqin bo‘lishi, turli xil she’rlar, kuy va qo‘shiqlardan tashkil topgan bo‘lishi kerak. Demak, bayram ertaliklaridagi repertuar xilma-xil bo‘lmog‘i lozim. Tanlanadigan repertuarning mazmuni bayram mazmuni bilan hamohang bo‘lishi muhim. Davlatimiz bayramlaridan tashqari maktabgacha ta’lim tashkilotlarida xayrlashuv kechalari ham tashkil etiladi. Bunda asosan, tayyorlov guruhlari bolalari ishtirok etib, ular maktabgacha ta’lim tashkiloti bilan xayrlashib maktabga yo‘llanma oladilar. Bayram ertaliklaridagi ssenariy musiqiy fon ostida namoyish etiladi. Shuning uchun musiqa rahbari har bir hodisa va holatlar uchun mos bo‘lgan musiqa namunalarini tanlashi o‘ta muhim shartlardandir. Bundan tashqari kecha o‘tkaziladigan zallarni ham bayram kayfiyatiga mos jihozlash darkor. Yuqoridagi shartlarni bajarilishi bayram ertaliklarini ko‘tarinki ruhda o‘tkazilishini ta’minlaydi.

Mavsumiy bayram ertaliklari: Hosil bayrami (Mexrjon); Yangi yil bayrami; Navro‘z bayrami. Ushbu bayramlar xalq og‘zaki ijodi namunalari asosida tashkil qilinadi. Yilma-yil bolalarning ushbu bayramlar, ularning har biri bilan bog‘liq bo‘lgan xalqimizning madaniy, milliy an’ana va urf-odatlari haqida olgan bilimlari kengayib boradi.

Ijtimoiy-siyosiy bayramlar: 1-sentyabr-mustaqillik kuni; 21-oktabr — O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun; 8-dekabr– Konstitutsiya kuni; 14-yanvar- Vatan himoyachilari kuni.

Bayramlarni kattalar bolalar uchun tayyorlaydilar. Har bir bayramning «oilaviy» qismi bo‘lib, u guruh xonasida, aksariyat hollarda ota-onalar ishtirokida o‘tadi.

Har bir bayramda:

* bayram mazmuniga mos o‘yinlar tashkil qilinadi, she’r, qo‘shiq va h.k. aytiladi;
* bolalar va kattalar uchun ko‘ngil ochish soatlari o‘tkaziladi;
* sir tutilgan daqiqalar, esdalik sovg‘alari tashkil qilinadi;

Bola maktabgacha ta’lim tashkilotiga qadam qo‘ygan davridan boshlab, yilma-yil bir jadval asosida bayramlar tashkil qilib boriladi. Bu katta maktabgacha yoshdagi bolalarga:

*har bir bayramga oldindan o‘zlarini tayyorlab borish;
*bayramni tashkil qilish va o‘tkazishda tashabbus ko‘rsatish;
*bayram tadbirida o‘zini erkin va ishonch bilan tutish imkonini beradi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar bayramga endi «iste’molchi» sifatida emas,

balki, mehmonlar, ota-onalar, kichik yoshdagi bolalar uchun bayramni «tashkil qiluvchilar» sifatida boradilar. Bu vaziyatda bolalar o‘zlarini artistlar, ya’ni atrofidagilarga quvonch va lazzat ulashish uchun mehnat qiluvchi insonlardek his qiladilar. Kichik yosh davrlarida ular bu ishni hali uddalay olmas edilar. Katta maktabgacha yoshga yetib bolalar konsert, spektakl (qo‘g‘irchoq teatri yoki rolli ijro), ko‘ngil ochishlar, ko‘rik-tanlovlar, syurprizlik chiqishlarni tashkil qila oladilar.

Bayram ertaliklari va ko‘ngil ochishlar bolalarning mustaqil musiqiy faoliyatga yo‘naltirish manbai bo‘lib xizmat qiladi. Bayram ertaliklari – bu har bir bolaga xursandchilik olib keluvchi, hayajonga soluvchi va ularning xotiralarida uzoq vaqt saqlanib qoluvchi hodisadir.

Bayram ertaliklari ssenariylari o‘z ichiga turli ko‘rinishdagi faoliyatlarni oladi. Bunda bolalar qo‘shiq aytadilar, raqsga tushadilar, she’rlar yodlaydilar, bolalar cholg‘ulari orkestrida yoki yakka tarzda chaladilar.

Barcha yoshdagi bolalar bilan o‘tkaziladigan bayram ertaliklarida musiqaviy – didaktik o‘yinlarni o‘tkazish mumkin. Bu o‘yinlar mashg‘ulotlar va bo‘sh vaqtlarda o‘tkazilganligi sababli bolalarga yaxshi tanishdir. Shuning uchun ham ularga yangicha ko‘rinish va shakl berib, bayramona bezatilgan holda tashkil etilishi lozim. Ertalikda shuningdek yangi, bolalarga tanish bo‘lmagan o‘yinni ham o‘tkazish mumkin. Bunday o‘yinlarning mazmuni bolalarga tanish musiqiy materiallar asosida tuzilsa bas. Ko‘pgina musiqaviy – didaktik o‘yinlarni sovg‘a o‘rnida ham kiritish mumkin. Bunday o‘yinlar bolalarga sovg‘alar tarqatish bilan bog‘lanadi. Masalan, masxaraboz parda ortida turli cholg‘ularda chaladi, bolalar cholg‘ularni ovozidan farqlab, nomlarini aytadilar. So‘ngra, masxaraboz ushbu cholg‘ularni barchasini bir vaqtda jaranglashini tinglab ko‘rishni taklif etadi va bu hol qanday nomlanishini bolalardan so‘raydi. Bolalar: «Orkestr» deb javob beradilar.

Ertaliklarga ssenariy tuzayotgan vaqtda, unga barcha bolalarni jalb qilish shartligini yodda tutishi lozim. Har bir bolaning faol ishtirok etishi, keyinchalik uning mustaqil faoliyati davomida o‘z aksini topadi. Kelgan mehmonlar qarshisida tortinchoqlik namoyon qiluvchi bolalar, boshlovchi taklif etgan musiqaviy-didaktik o‘yinlarda faollik ko‘rsatadilar. Tabiiyki musiqaviy – didaktik o‘yinni ertalik mavzusiga ko‘ra tanlash va dasturiga moslashtirish lozim. Ya’ni, o‘yin alohida chiqishlar bilan bog‘lanishi va ssenariyning umumiy, yaxlitligini ta’minlashi lozim. Masalan, yangi yil bayram ertaligida Qorbobo bilan birgalikda o‘rmon hayvonlari ham mehmonga keladilar. Qorbobo bolalarga o‘zi bilan qaysi o‘rmon hayvonlarini olib kelganligini topishni taklif qiladi. Bolalarga tanish bo‘lgan, turli hayvonlar haqidagi qo‘shiqlar kuyi birin-ketin yangraydi. Bolalar ularni birin-ketin tanib oladilar. Har bir to‘g‘ri javobdan so‘ng, o‘rmon hayvonining kirib kelishi kichkinagina sahna ko‘rinishi sifatida o‘tkaziladi.

Ko‘ngil ochish soatlari ham xuddi ertalik kabi tashkilotga xursandchilik, quvonch

olib keluvchi tadbirdir. Har bir ko‘ngil ochish soati bolalarning taassurotlarini boyitishi, quvnoq hislarni uyg‘otuvchi bo‘lishi lozim. Maktabgacha ta’lim tashkilotida turli ko‘rinishdagi teatr tomoshalari, multfilmlar, tug‘ilgan kunlar, adabiy-musiqiy kechalar, bolalar ijodiyoti ko‘riklari, ertaklarni sahnalashtirish kabi ko‘ngil ochish soatlarini tashkil etish mumkin.

Ko‘ngil ochish soatlariga shuningdek, turli musiqaviy-didaktik o‘yinlarni ham kiritish mumkin. Bolalarning yoshlariga mos va ular uchun qulay bo‘lgan shakl – o‘yin shaklida olgan bilimlarini mustahkamlash, bolalar orkestri ijrosida yoki audioyozuvda tinglagan musiqani tanib olish, uning nomi va bastakorining ismini aytish kabi topshiriqlar asosida dasturda belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirilishiga erishish mumkin. Shunday qilib, ko‘ngil ochish soatlarida musiqaviy-didaktik o‘yinlarni qo‘llash bolalarni ijodiy jarayonga faol jalb qilish imkonini beradi.

Ko‘ngil ochish soatlari bolalarning o‘quv yili davomida olgan bilimlarining yakuni sifatida ham tashkil etilishi mumkin. Masalan, «Musiqali konkurs»ni ana shunday tadbir sarasiga kirishi mumkin. Bunday konkursni har bir yosh guruhi bilan o‘quv yilining oxirida yil davomida olingan bilimlarni nazorat qilish va mustahkamlash maqsadida o‘tkazilishi tavsiya etiladi. Quyida e’tiboringizga ushbu konkursni tashkil qilish va o‘tkazish rejasini taklif etamiz.

“Musiqali konkurs”

Tayyorgarlik davri: bolalar ko‘ngil ochish soatigacha bo‘lgan davrda ikki guruhga bo‘linib, o‘z guruhlarini nomlaydilar, tarbiyachi bilan birgalikda kerakli atribut yoki ko‘krak nishonlarini tayyorlaydilar, sardorlarni saylaydilar.

Bayram ertaliklari, muhitni sanalarga oid tadbirlar, o‘yin-kulgi soatlari bola hayotining eng muhim va tarkibiy qismidir. Mustaqillik, Mehrjon, Hosil, Yangi yil, Navro‘zi olam bayramlari va MTTda o‘tkaziladigan «Maktabga kuzatish» tadbirlari zamiridagi g‘oyalar hamda bayram shaklidagi turli tadbirlar (sayillar, sport bayramlari, musobaqalar, muhim sanalarga bag‘ishlangan nafosat soatlari) o‘ziga xos mazmun va xususiyatga ega. Bolalar va musiqa rahbariga zal, guruh xonalari hamda o‘yin maydonchalarini bezatish imkoniyati beriladi. Tayyorgarlik jarayonida o‘rganilgan sevimli qo‘shiq, she’r, raqs, lapar, turli sahna ko‘rinishlari bolalardan epchillik va chaqqonlikni talab etadi. Bayram tantanalarida iloji boricha o‘zbek milliy sozlari (karnay, surnay, doira, nog’ora, rubob)dan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Imkoniyat bo‘lmasa audio yozuvidan foydalanish mumkin. Bayram ertaliklari bolalarni badiiy tarbiyalash shaklaridan biridir. Ertaliklar shodiyonalari xotirada uzoq

vaqt saqlanib qolishi bilan birga bolalar tasavvurini yanada boyitadi. Bayram dasturida askiyalar va kichik sahnalashtirilgan ertaklar bo‘lishi kerak. Qo‘shiq, lapar va askiyalar mazmuni bolalarga tushunarli bo‘lishi lozim. Ertaliklar bayramlarning umumiy xarakteri, mazmuniga mos bo‘lishi, ushbu tadbirlarda kattalar, ota-onalar, tarbiyachilar, metodistlar ishtirok etishi lozim. Bayram tadbiri kichik va o’rta guruhlarda 40-45 daqiqani, katta va tayyorlov guruhlarida 45-60 daqiqani tashkil etadi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bayram va tadbirlarni tashkil etish quyidagi asosiy bosqichlarni o‘z ichiga oladi: tayyorgarlik (mavzu va ssenariy tanlash, rejalashtirish), ijro (mashqlar, liboslar, sahna bezatish), hamda tadbir so‘ngidagi yakuniy ishlar (tahlil va xulosa) va bu jarayonlar bolalarning yosh xususiyatlariga mos bo‘lishi, ularning faol ishtirokini ta’minlashi muhimdir.

1. Tayyorgarlik bosqichi (Rejalashtirish):

• Mavzu tanlash: Bayram yoki tadbirning maqsadi (masalan, Navro‘z, Mustaqillik, Xalqaro bolalar kunini nishonlash), yosh guruhiga mos mavzuni belgilash.

• Ssenariy ishlab chiqish: Bayram mazmunini, o‘yinlar, qo‘shiqlar, raqslar, sahna ko‘rinishlaridan iborat bo‘ladigan ssenariyni yaratish. Bu yerda qarama-qarshilik elementlari bo‘lishi ham mumkin, bu tomoshabinni jalb qiladi.

• Reja tuzish: Kim nima qilishi, qancha vaqt ketishi, qatnashuvchilar (tarbiyachilar, bolalar) va ularning vazifalari aniq belgilab olinadi.

2. Ijro bosqichi (Tadbirni o‘tkazish):

• Mashqlar: Belgilangan ssenariy asosida bolalar bilan qo‘shiq, raqs, she’r va sahna ko‘rinishlariga mashq qilish.

• Dekoratsiya va liboslar: Tadbir muhitiga mos sahna bezaklarini tayyorlash, bolalar uchun liboslar tanlash yoki tikish.

• Tadbirni boshlash: Dasturni boshlovchi (tarbiyachi) tadbirni kirish so‘zlari bilan boshlaydi, bolalar ijrosini taqdim etadi.

• Asosiy qism: Ssenariy bo‘yicha tadbirning barcha qismlarini ketma-ket ijro etish, bolalarning faol ishtirokini ta’minlash (masalan, o‘yinlar o‘tkazish).

3. Yakuniy bosqich (Tahlil):

• Tadbir yakuni: Tadbirni xulosa so‘zlari bilan tugatish.

• Tahlil va baholash: O‘tkazilgan tadbir qanchalik muvaffaqiyatli bo‘lganini, bolalar va tarbiyachilar qanchalik faol ishtirok etganini muhokama qilish.

• Keyingi ishlar: Kelajakda o‘tkaziladigan tadbirlarni yanada yaxshiroq tashkil etish uchun xulosalar chiqarish.

Bu bosqichlar har bir tadbirning o‘ziga xos xususiyatlariga qarab farq qilsa-da, umumiy tartib shunga o‘xshash bo‘ladi va bolalar tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi.

Avvalo har bir bayramni tashkil etishdan oldin ma’lum bir g‘oya tanlanadi. O‘sha g‘oya asosida ssenariy tuzilish boshlanadi. Ssenariy asosidagi ishlarni amalga oshirishda va ijodiy yo‘nalishlarni belgilashda ishtirok etuvchi badiiy jamoalar muhim

oʻrin tutadi. Ssenariydagi har bir blokning tuzilmasiga qarab jamoalarning dasturlari oʼrganiladi va tavsiya qilinadi. Ssenariyda gʻoyalar asosida mavzular tuziladi va ular orasidagi bogʻliqlik ssenariy oxirigacha davom etadi. Ssenariy tadbir mazmunini adabiy tasvirlash boʻlib, bunda jiddiy ketma ketlik asosida harakat elementlari boʻlmish mavzu va gʻoya, bir boʻlakdan ikkinchisiga oʻtish, bloklar, bezaklar, matnlar toʻliq koʻrsatiladi.

Tadbirning ssenariysini yaratish, bolalar bilan ishlash, sahna koʻrinishlarini tayyorlash, sahnani bezash, repitisiyalarni oʻtkazish va boshqa tashkiliy ishlar tadbir tashkilotchisini bir zumga ham boʻsh qoʻymaydi.

1. Bayram va tadbirlarni tashkil etishning muhim bosqichlaridan biri — mavzuga mos qoʻshiq va kuylarni toʻgʻri tanlashdir. Musiqa tadbirning umumiy ruhini belgilaydi, bolalarda ijobiy hissiyotlar uygʻotadi va bayramona kayfiyatni yaratadi. Shu sababli tanlanadigan qoʻshiq va kuylar bayram mavzusi, bolalarning yosh xususiyatlari hamda ularning musiqiy imkoniyatlariga mos boʻlishi zarur. Masalan, milliy bayramlarda xalq kuy-qoʻshiqlari, anʼanaviy ohanglar tanlanib, bolalarda milliy oʻzlikni anglash va madaniy merosga hurmat tuygʻusi shakllantiriladi. Fasllarga bagʻishlangan tadbirlarda esa quvnoq, sodda va ritmik kuylar bolalarning faol ishtirokini taʼminlaydi. Amaliy mashgʻulot jarayonida tarbiyachi va musiqa rahbari qoʻshiqlarning matni, ohangi va ritmini tahlil qilib, bolalar uchun qulay va tushunarli variantlarni tanlash koʻnikmasini shakllantiradilar.

2. Bayram va tadbirlarning samaradorligini oshirishda harakatli oʻyinlar va raqslarni uygʻunlashtirish muhim ahamiyatga ega. Harakatli faoliyat bolalarda jismoniy faollikni oshiradi, charchoqni kamaytiradi va tadbirning jonli hamda qiziqarli oʻtishini taʼminlaydi. Oʻyin va raqslar musiqa bilan uygʻunlashganda bolalarda ritmni his qilish, harakatlarni muvofiqlashtirish va jamoaviy harakat qilish koʻnikmalari rivojlanadi. Amaliy mashgʻulotlarda tarbiyachilar oʻyin va raqslarni bayram mavzusiga mos holda tanlashni oʻrganadilar. Masalan, tabiatga oid bayramlarda hayvonlar yoki qushlar harakatlariga taqlid qilinadigan oʻyinlar, milliy bayramlarda esa xalq raqs elementlari qoʻllaniladi. Harakatli oʻyinlar va raqslarning toʻgʻri uygʻunligi bolalarda quvonch, dadillik va oʻzini erkin tutish hissini kuchaytiradi.

3. Bayram va tadbirlarni tashkil etishda bolalarning individual qobiliyatlarini hisobga olish muhim pedagogik talab hisoblanadi. Har bir bolaning qiziqishi, layoqati va imkoniyati turlicha boʻlib, tadbir jarayonida ushbu jihatlarni eʼtiborga olish bolalarning faol ishtirokini taʼminlaydi. Kimdir qoʻshiq aytishga, boshqasi raqsga, yana biri sahna koʻrinishida rol ijro etishga moyil boʻlishi mumkin. Amaliy mashgʻulotlar jarayonida tarbiyachilar bolalarning individual xususiyatlarini aniqlash, ularni mos faoliyat turlariga yoʻnaltirish va ragʻbatlantirish koʻnikmalarini egallaydilar. Bu esa bolalarda oʻziga boʻlgan ishonchni oshiradi, muvaffaqiyat hissini uygʻotadi va ijodiy salohiyatini roʻyobga chiqaradi. Individual yondashuv bayram va

tadbirlarning samaradorligini oshirib, barcha bolalarning teng ishtirok etishiga imkon yaratadi.

Nazorat savollari

1. Musiqali o‘yinlardan bayram ertaliklari va ko‘ngil ochish soatlarida foydalanishning o‘ziga xosligi haqida so‘zlab bering.
2. Bayram va tadbirlar uchun qo‘shiq va kuylarni tanlashda nimalarga e’tibor qaratiladi?

3-MAVZU: BAYRAM ERTALIKLARI UCHUN MUSIQIY O‘YINLAR

(2 soat amaliy mashg‘ulot)

1. Bayram ertaliklari uchun musiqiy o‘yinlarni tashkil etish bosqichlari.
2. Musiqiy o‘yinlar yaratish.

Tayanch so‘z va tushunchalar: bayram, didaktik oyinlar,kuylash, tadbirlar, orkestr.

1. Bayram ertaliklari uchun musiqiy o‘yinlarni tashkil etish bosqichlari. Bayram ertaliklari va ko‘ngil ochish soatlari bolalarning mustaqil musiqiy faoliyatga yo‘naltirish manbai bo‘lib xizmat qiladi. Bayram ertaliklari – bu har bir bolaga xursandchilik olib keluvchi, hayajonga soluvchi va ularning xotiralarida uzoq vaqt saqlanib qoluvchi hodisadir.

Bayram ertaliklari ssenariylari o‘z ichiga turli ko‘rinishdagi faoliyatlarni oladi. Bunda bolalar qo‘shiq aytadilar, raqsga tushadilar, she’rlar yodlaydilar, bolalar cholg‘ulari orkestrida yoki yakka tarzda chaladilar. Barcha yoshdagi bolalar bilan o‘tkaziladigan bayram ertaliklarida musiqaviy o‘yinlarni o‘tkazish mumkin. Bu o‘yinlar mashg‘ulotlar va bo‘sh vaqtlarda o‘tkazilganligi sababli bolalarga yaxshi tanishdir. Shuning uchun ham ularga yangicha ko‘rinish va shakl berib, bayramona bezatilgan holda tashkil etilishi lozim.

Ertalikda shuningdek yangi, bolalarga tanish bo‘lmagan o‘yinni ham o‘tkazish mumkin. Bunday o‘yinlarning mazmuni bolalarga tanish musiqiy materiallar asosida tuzilsa bas. Ko‘pgina musiqaviy – didaktik o‘yinlarni sovg‘a o‘rnida ham kiritish mumkin. Bunday o‘yinlar bolalarga sovg‘alar va h.k. tarqatish bilan bog‘lanadi. Masalan, masqaraboz parda ortida turli cholg‘ularda chaladi, bolalar cholg‘ularni ovozidan farqlab, nomlarini aytadilar. So‘ngra, masqaraboz ushbu cholg‘u asboblarini barchasini bir vaqtda jaranglashini tinglab ko‘rishni taklif etadi va bu hol qanday nomlanishini bolalardan so‘raydi. Bolalar: «Orkestr» deb javob beradilar. Shundan so‘ng katta guruhlar tarbiyalanuvchilaridan tashkil topgan bolalar cholg‘ulari orkestrining chiqishi tinglanadi. Yoki, kichik guruhlar tarbiyalanuvchilarining

ertaligiga “biror ertak qahramoni” mehmonga keladi. U metallofonda bolalarga tanish bir nechta qo‘shiqlar ohangini chaladi. Kichkintoylar buni qaysi qo‘shiq ekanini topadilar. So‘ng, “qahramon” nog‘oracha yoki doira yoki baraban chalib, chalinayotgan cholg‘u asbobi shaklidagi kichik qutichalarga joylangan sovg‘alarni tarqatadi.

Ertaliklarga ssenariy tuzayotgan vaqtda, unga barcha bolalarni jalb qilish shartligini yodda tutishi lozim. Har bir bolaning faol ishtirok etishi, keyinchalik uning mustaqil faoliyati davomida o‘z aksini topadi.

Kelgan mehmonlar qarshisida tortinchoqlik namoyon qiluvchi bolalar, boshlovchi taklif etgan musiqaviy-didaktik o‘yinlarda faollik ko‘rsatadilar. Tabiiyki musiqaviy – didaktik o‘yinni ertalik mavzusiga ko‘ra tanlash va dasturiga moslashtirish lozim. Ya’ni, o‘yin alohida chiqishlar bilan bog‘lanishi va ssenariyning umumiy, yaxlitligini ta’minlashi lozim.

Masalan, yangi yil bayram ertaligida Qorbobo bilan birgalikda o‘rmon hayvonlari ham mehmonga keladilar. Qorbobo bolalarga o‘zi bilan qaysi o‘rmon hayvonlarini olib kelganligini topishni taklif qiladi. Bolalarga tanish bo‘lgan, turli hayvonlar haqidagi qo‘shiqlar kuyi birin-ketin yangraydi. Bolalar ularni birin-ketin tanib oladilar. Har bir to‘g‘ri javobdan so‘ng, o‘rmon hayvonining kirib kelishi kichkinagina sahna ko‘rinishi sifatida o‘tkaziladi.

Ko‘ngil ochish ham xuddi ertalik kabi muassasaga xursandchilik, quvonch olib keluvchi tadbirdir. Har bir ko‘ngil ochish bolalarning taassurotlarini boyitishi, quvnoq hislarni uyg‘otuvchi bo‘lishi lozim. Maktabgacha ta’lim muassasasida turli ko‘rinishdagi teatr tomoshalari, diafilmlar va multfilmlar tomoshalari, tug‘ilgan kunlar, adabiy-musiqiy kechalar, bolalar ijodiyoti ko‘riklari, ertaklarni sahnalashtirish kabi ko‘ngil ochishlarni tashkil etish mumkin.

Ko‘ngil ochishlarga shuningdek, turli musiqaviy-didaktik o‘yinlarni ham kiritish mumkin. Bolalarning yoshlariga mos va ular uchun qulay bo‘lgan shakl – o‘yin shaklida olgan bilimlarini mustahkamlash, bolalar orkestri ijrosida yoki gram yozuvda tinglagan musiqani tanib olish, uning nomi va bastakorining ismini aytish kabi topshiriqlar asosida dasturda belgilangan maqsad va vazifalarni amalga oshirilishiga erishish mumkin.

Shunday qilib, ko‘ngil ochishlarda musiqaviy-didaktik o‘yinlarni qo‘llash bolalarni ijodiy jarayonga faol jalb qilish imkonini beradi.

Ko‘ngil ochish bolalarning o‘quv yili davomida olgan bilimlarining yakuni sifatida ham tashkil etilishi mumkin. Masalan, «Musiqali konkurs» ana shunday tadbir sarasiga kirishi mumkin. Bunday konkursni har bir yosh guruhi bilan o‘quv yilining oxirida yil davomida olingan bilimlarni nazorat qilish va mustahkamlash maqsadida o‘tkazilishi tavsiya etiladi. Quyida e’tiboringizga ushbu konkursni tashkil qilish va o‘tkazish rejasini taklif etamiz.

“Musiqali konkurs”

Tayyorgarlik davri: bolalar ko‘ngil ochishgacha bo‘lgan davrda ikki komandaga bo‘linib, o‘z komandalarini nomlaydilar, tarbiyachi bilan birgalikda kerakli atribut yoki ko‘krak nishonlarini tayyorlaydilar.

Bayram ertaliklariga tayyorgarlik ko‘rilar ekan, avvalambor bu hammaning bayrami ekanligi, bolalar xotirasida unutilmas iz qoldirilishi, ularga zavq, xursandchilik olib kelishini nazarda tutish zarur. Bu jarayonda barcha teng qatnashishi lozim. Masalan, pedagogik jamoa, ota-onalar va mahalla ahli. Bayram ertaliklari bolalarni rivojlantiribgina qolmay, ularni maktab ta’limida o‘zlarini erkin tutishlarini, darslar jarayonida o‘zlarining fikrlarini erkin bildira olish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Kichik, o‘rta, katta va tayyorlov guruhlarida bayram ertaliklari MTTda olib boriladigan barcha bayram ertaliklari vositasida oliyjanob fazilatlar yosh avlodga maktabgacha ta’lim yoshidan boshlab shakllantiriladi. Bayram ertaliklari jarayonida bola hayotiy voqelikni musiqaviy obrazlar orqali idrok etib boradi. Maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi bayram ertaliklarining maqsadi — bolaga quvonch bag‘ishlash unda zavqlanish, o‘z iste’dodlarini namoyon etish, ijodkorligini shakllantirish orqali bola shaxsini ma’naviy boyitishdan iboratdir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotda bayram ertaliklari kattalar va bolalar uchun birgalikdagi tadbir bo‘lib, unda har bir kishi o‘z roli va mas’uliyatiga ega bo‘ladi. Tarbiyachining bayram ertaliklarini tayyorlash metodikasi uch bosqichni o‘z ichiga oladi:

1. “Tarbiyachi bola sifatida”;
2. “Pedagog yetakchi sifatida”;
3. “Pedagog aktyor sifatida”.

Bu jarayonda maqsad bolalarning musiqiy va ijro etishdagi qiyinchiliklarini va tashkiliy muammolarini hal qilishda o‘z ustida ishlashni o‘rgatishdan iborat. Tarbiyachining vazifalari:

- birinchi bosqichda: bolalar bilan musiqiy repertuarni o‘rganish (ohang, so‘zlar, raqslardagi harakatlar va tartiblar, o‘yin qoidalari, orkestr qismlari)

- ikkinchi bosqichda: musiqiy repertuarni bilish, tarbiyachi o‘zini va bolalarni bayram ertaliklariga tayyorlashi. — uchinchi bosqichda: rolingizni bolalarsiz mashq qiling, qahramonlar bilan muloqot qilish, personajlar kostyumlarini tayyorlash bo‘yicha tavsiyalar berish. Ertalik paytida tarbiyachining vazifalari:

1. Tarbiyachining tashkiliy vazifalari;
2. Bayram ssenariysini va uning musiqiy va adabiy repertuarini bilish;
3. Improvizatsiya qila olish, ajablanish elementlarini izlash va bayramona muloqotning samaradorligini ta’minlash;
4. Ota-onalar bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish;

Bayram va ertaliklarda musiqiy o‘yinlarni qo‘llash muhim. Musiqiy o‘yin — bu

musiqiy mazmun, maqsad va qoidalarga ega bo‘lgan o‘yin faoliyati bo‘lib, unda bolalar musiqiy bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarni o‘yinli, qiziqarli shaklda o‘zlashtiradilar. O‘yin faoliyati davomida bolalar o‘rtasida o‘zaro munosabatlarning ma’lum bir shakli yuzaga keladi. Bolalarni kuzata turib, bugun yaxshi tashkil etilgan o‘yin ertasi kuni xuddi o‘sha tartibda takrorlanishini ko‘rish mumkin. Bu tushunarli hol: kecha hamma birgalikda harakat qildi, kim qaysi cholg‘uda chalishini kelishib oldi, kecha kim boshlovchi bo‘lishini aniqlab olishdi.

Shunday qilib, bolalarda o‘zaro hamjihatlik, do‘st- birodarlik, yelkadoshlik sifatlari rivojlanib boradi. Shuningdek, o‘yin davomida bolalarda tajriba almashish ham yuzaga keladi.

2.Musiqiy o‘yinlar yaratish bosqichlari:

1. **Maqsadni belgilash:** O‘yin qaysi musiqa ko‘nikmasini rivojlantirishi (masalan, ritm, baland ovoz/past ovoz farqi, musiqa cholg‘usini tanish) aniqlanadi.

2. **Musiqiy materialni tanlash:** Milliy qo‘shiqlar, xalq kuylari yoki oddiy, takrorlanuvchi musiqiy fragmentlardan foydalaniladi.

3. **Qoidalarni ishlab chiqish:** Qoidalar sodda, tushunarli va qisqa bo‘lishi kerak (3-5 daqiqa).

4. **O‘yin jarayonini loyihalash:** O‘yin harakatlari (yurish, yugurish, qo‘llarni silkitish) musiqaga moslashtiriladi.

5. **O‘yinni sinab ko‘rish:** Tanlangan yosh guruhidagi bolalar bilan o‘yinni o‘tkazish va qaysi qismlar samarali ekanligini kuzatish.

6. **Tizimlashtirish:** Turli maqsadlar uchun yaratilgan o‘yinlarni ma’lum bir tizimga solish (masalan, yosh guruhiga qarab).

7. **Yangi o‘yinlar yaratish:** Har bir bosqich uchun 3-5 ta original o‘yin ishlab chiqish. Musiqa mashg‘ulotlarida bolalarning erkin kuylashi uchun “Sehrli mikrofon”, “Somizatsiya”, “Ritmli so‘zlar” kreativ metodlari va turli didaktik vositalarning samarali qo‘llanishi yordamida erishiladi. Qo‘shiq kuylash faoliyatida turli shovqinli cholg‘ularni ham qo‘shiq ritmiga monand ijro etishi bolalarga erkinlik bag‘ishlaydi.



Laylo Tursunovaning “Vatan” qo‘shig‘i.

Dastlab ushbu qo‘shiqni bolalarga o‘rgatganimizda, ohangsiz ritm jihatdan ko‘rib chiqamiz. Har bir so‘zning buguniga alohida chapak yoki qoshiqchalar bilan ritm ijro ettiramiz. So‘ngra, kichik frazalar (jumlalar) ga ajratib, alohida kuylatamiz. Bolalar ritm va ohang jihatdan to‘g‘ri kuylangandan so‘ng, frazalarni birlashtirib qo‘shiqning bir qatorini jamlab kuylaymiz. Bolalar tovushlar oralig‘i intervallarini toza kuylaganidan so‘ng, baralla ovozda mustahkamlab olamiz. Qo‘shiqni qizlar va o‘g‘il bolalar uchun frazalarga ketma-ketlikda bo‘lib kuylatsak, bolalar bir-birlarini ovozini tinglashni, ijro vaqtida kutib turishni o‘rganishadi.

Nazorat savollari

1. Bayram ertaliklari uchun musiqiy o‘yinlarni tashkil etish bosqichlarini aytib bering.
2. Faoliyatingiz davomida o‘zingiz yaratgan musiqiy o‘yinlar bilan o‘rtoqlashing.

O‘Z-O‘ZINI TEKSHIRISH UCHUN TEST SAVOLLAR

№	Savollar	Javob 1	Javob 2	Javob 3	Javob 4	To‘g‘ri javob nomeri
1	MTTda bayram ertaliklarini o‘tkazishdan maqsad nima?	Bolalarni estetik tarbiyalash, ularda ajoyib yorqin taassurotlar qoldirish va shodlik baxsh etish	Bolalarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish	Musiqiy-didaktik o‘yinlar tashkil etish	MTTda bayram ertaliklari o‘tkazilmaydi	1
2	“Navro‘z” bayramiga bag‘ishlab o‘tkaziladigan ertaliklarning mazmunida nimalar aks ettiriladi?	Qadriyat, urf-odat udumlari aks ettiriladi, tabiat uyg‘onishi, yangi mehnat mavsumining boshlanishi, tabiat go‘zalligidan zavqlanish va uni asray bilish, ko‘kalamzorlashtirish, mehnatni ulug‘lash kabi g‘oyalarni o‘zida mujassam etadi	Unda chiroyli bezatilgan archa, quvnoq kuy, qo‘shiq va o‘yinlar Qorbobo, Qorqiz va turli ertak qahramonlari, o‘rmon hayvonlari ishtirok etib, bolalar bilan xursandchilik qiladilar	Bolalar onalari, buvilari, opalari, tarbiyachilariga bo‘lgan mehrlari va ulkan muhabbatlarini qo‘shiq, she’r, raqs, o‘yinlarida ifodalaydilar	«Quyosh bobo»ga minnatdorchilik bildirib, «Bobodehqon» mehnatini, «Ona yer» saxovatini, mehr-muruvvatini, «Kuzjon»ning to‘kin sochinligini ramziy obrazlar orqali chuqurroq idrok ettiriladi	1
3	Bayram ertaliklari uchun tanlanadigan repertuarning mazmuni nima bilan hamohang bo‘lishi muhim?	Bayram mazmuni bilan hamohang bo‘lishi muhim	Raqs harakatlari bilan hamohang bo‘lishi lozim	Didaktik o‘yinning mazmuni bilan hamohang bo‘lishi muhim	Bolalar aytadigan she’r mazmuni bilan hamohang bo‘lishi muhim	1
4	Ijtimoiy-siyosiy bayramlar to‘g‘ri keltirilgan qatorni toping?	1-sentyabr-mustaqillik kuni; 21-oktabr — O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun; 8-dekabr– Konstitutsiya kuni; 14-yanvar- Vatan himoyachilari kuni	1-sentyabr-mustaqillik kuni; 21-oktabr — O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun; 8-dekabr– Konstitutsiya kuni; “Navro‘z” bayrami	Hosil bayrami (Mehrjon);Yangi yil bayrami; Navro‘z bayrami	21-oktabr — O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun; 8-dekabr– Konstitutsiya kuni; Yangi yil bayrami; Navro‘z bayrami	1

MODUL YUZASIDAN MALAKA ISHI MAVZULARI

1. Bayram va tadbir mavzusiga mos qo‘shiq va kuylarni tanlash faolliyati qanday tashkil qilinadi?

2.Bayram ertaliklari uchun musiqiy o‘yinlarni tashkil etish bosqichlarini aytib bering?

3. Didaktik oyinlar orqali ritm hissini rivojlantirish faolliyati ishlanmasini tuzing?

4. MTTda bolalar cholg‘u ansamblini tuzishda ko‘rgazmali metodikalardan foydalanish?

5. Turli yosh guruhlarida bolalari uchun musiqiy asarlar notalari toplamlaridan amaliy mashg‘ulot qamday olib boriladi?

6. Korgazmali metodikalardan foydalangan holda ansambl faoliyatini ko‘rsatib bering?

7.Kanon uslubida ansambl hissini rivojlantirish faolliyat ishlanmasini tuzing?

8.Ansambl tuyg‘usini rivojlantirish bo‘yicha o ‘zbek komopitorlar repertuarlarlarini maktabgacha yoshdagi bolalarg qanday moslashtiriladi?

9. Kompozitorlarni asarlarini tanlang va cho‘lg‘ularga moslashtirib ijro etin ?

10. Maktabgacha yoshdagi asarlarni transport qilish bo ‘sqichlari qanday amalga oshiriladi transpozitsiya nima uchun qilinadi ?

TARQATMA MATERIALLAR

O‘zbekistondagi to‘rtta mahalliy uslubdagi ayollar liboslarining ko‘rinishi

Toshkent –Farg‘ona

Surxondaryo-Qashqadaryo

Samarqand-Buxoro

Xorazm

Bayram ertaliklari uchun qo‘llaniladigan raqs elementlari

«Juftlik raqs» (o‘rta guruh uchun)

«Do‘lancha», o‘zbek xalq kuyi

Maqsad: bolalarni bir tizzaga o‘tirishni o‘rgatish. «Kel yonimga», «Arqonni tort» harakatlarini mustahkamlash. Musiqa qismlarini farqlashga o‘rgatish.

Raqs harakatlarining bajarilishi: bolalar juft holda, qo‘l ushlashib, doira bo‘lib turadilar. O‘g‘il bolalarning bo‘sh qo‘llari belda, qiz bolalarniki ko‘ylak etagida.

1 — 4-taktlarda, musiqa takrorlangan holda o‘ng tomonga doira bo‘lib yengil yugurishadi.

5 — 8-taktlarda, o‘z juftlariga o‘girilib, o‘g‘il bolalar bir tizzasiga o‘tirishadi, har taktda old tomonda chapak chaladilar. Bir vaqtda qizlar «Kel yonimga» harakatini, har taktga o‘ng oyoqni to‘pillatib bajarishadi.

9 — 12-taktlarda, qo‘l ushlashib, juft-juft bo‘lib yengil yugurib aylanishadi. 1 — 4-taktlardagi harakatlar takrorlanadi.

5 — 8-taktlarda, o‘z juftlariga o‘girilib, qiz bolalar bir tizzasiga o‘tirishadi, har taktda old tomonda chapak chaladilar. Bir vaqtda o‘g‘il bolalar «Arqonni tort» harakatini, har taktga o‘ng oyoqni to‘pillatib bajarishadi. 9 — 12-taktlardagi harakatlar takrorlanadi

«Juftlik raqs»(katta guruh uchun)

«Yallama yorim», o‘zbek xalq kuyi

Maqsad: bolalarni o‘ng oyoqni to‘pillatib yurishga o‘rgatish. «Ipni o‘rab tort», «Ko‘zguga qara, ko‘zguga qarama», «Kdmchini ur» harakatlarini ifodali bajarishga undash. Musiqa ohanglariga ko‘ra, bir harakatdan ikkinchi harakatga o‘tishni mustahkamlash.

Raqs harakatlarining bajarilishi: bolalar juft holda, qo‘l ushlashib, doira bo‘lib turadilar. O‘g‘il bolalarning bo‘sh qo‘llari belda, qiz bolalarniki ko‘ylak etagida.

1 — 8-taktlarda, o‘n tomonga doira bo‘lib, har taktga o‘ng oyoqni to‘pillatib yurishadi.

8-taktda bir-birlariga qarab to‘xtashadi.

9 — 14-taktlarda, o‘g‘il bolalar bir tizzaga o‘tirib, yelkalarini o‘ynatishadi. Bir vaqtda qizlar har taktda o‘ng oyoqni to‘pillatib, «Ipni o‘rab tort» harakatini bajarishadi.

15 — 18-taktlarda, qo‘llarini kema shaklida ushlab, har taktga o‘ng oyoqni to‘pillatib, juft bo‘lib aylanishadi.

1 — 8-taktlardagi harakatlar takrorlanadi.

9 — 14-taktlarda, qiz bolalar bir tizzaga o‘tirib, «Ko‘zguga qara, ko‘zguga qarama» harakatini bajarishadi. Bir vaqt-da bolalar, har taktda o‘ng oyoqni to‘pillatib, «Qamchini ur» harakatini bajarishadi.
15 — 18-taktlardagi harakatlar takrorlanadi.

«Milliy o‘zbek raqslarining tavsifi»
«O‘g‘il bolalar raqsi»(maktabga tayyorlov guruhi uchun)
«Andijon polkasi», o‘zbek xalq kuyi

Dastur mazmuni: bolalarda musiqani tinglab, qismlari o‘zgarishi bilan harakatlarini moslashtira olish malakalarini mustahkamlash. O‘zbek raqsiga xos harakatlarni ifodali ijro etishga o‘rgatish 8 yoki 10 nafar bola qatnashadi. Ular o‘ng yon devor oldida, markaziy devorga qarab turishadi.
1 — 4-taktlarda, musiqa takrorlangan holda har taktga o‘ng oyoqni to‘pillatib, «Arqonni tort» harakati bilan markaziy devor oldida bir qator bo‘lib, mehmonlarga qarab to‘xtaydilar.
5 — 8-taktlarda, qo‘llarini belda ushlagan holda, o‘ng yonga egilib, yelka harakatini bajarishadi.
5 — 8-taktlardagi musiqaning takrorlanishiga mos holda chap yonga egilib, dastlabki harakatni takrorlaydilar. Oldindan 1 — 2-raqamli bolalarni belgilab olish lozim.
9- 17-taktlarda, 1-raqamli bolalar bir tizzada o‘tirib, yelka harakatini bajaradilar. Qo‘llari belda, 2-raqamli bolalar 1-raqamli bolalarni «Xo‘rozcha» harakati bilan har taktga o‘ng oyoqni to‘pillatib, aylanib, o‘z joylarida to‘xtaydilar.
9 — 18-taktlardagi musiqaning takrorlanishiga ham-ohang bolalar joylarini almashtirib, dastlabki harakatni takrorlashadi.
19 — 20-taktlarda, musiqa takrorlangan holda bolalar qator o‘rtasidan teng bo‘linib, ketma-ket bo‘lib zalning o‘rtasiga «Arqonni tort» harakati bilan kelib to‘xtaydilar.
23 — 28-taktlarda, bir-birlariga qarab, gavda mehmonlarga qaratilgan holda egilib, yelka harakatini bajaradilar.
23 -28-taktlardagi musiqa takrorlanganda bir-birlariga o‘girilib, egilib, yelka harakatini bajaradilar.
29 — 32-taktdagi musiqa takrorlangan holda bolalar yon devorlarga orqa qilib, qo‘llari belda, o‘ng oyoqni to‘pillatib, orqaga yuradilar.

1 — 4-taktlardagi musiqa takrorlangan holda, oldinda belgilangan yakka raqqoslar o‘rtaga chiqib, «Arqonni tort» harakatini har taktga o‘ng oyoqni to‘pillatib bajaradilar.
5 — 8-taktlardagi musiqa takrorlangan holda, yakka raqqoslar bir tizzaga o‘tirib, «Arqonni tort» harakatini ko‘krak oldida bajaradilar. Bir vaqtda, qatorlarda turgan bolalar ko‘krak oldida chapak chalib, «ha» deb turadilar.
9 — 18-taktlarda, bolalar har taktga o‘ng oyoqni to‘pillatib «Arqonni tort» harakati bilan markaziy devor oldiga, bir qatorga kelib to‘xtaydilar.
9 — 18-taktlardagi musiqaning takrorlanishiga bolalar bir vaqtda, ko‘krak oldida chapak chalib, o‘ng oyoqni to‘pillatib, «To‘pni yuqoriga ot» harakatini bajaradilar. Raqsning oxirida qo‘llarini ko‘krak ostiga qo‘yib, ta’zim qiladilar.

Metodik ko‘rsatmalar: raqsni qismlarga bo‘lib o‘rgatish lozim. «Arqonni tort» yelka harakatlarini ko‘proq mashq qildirish kerak. Yakka raqqoslar bilan alohida ishlash lozim.

«Gullar bilan raqs»

(tayyorlov guruhi uchun) *«O‘zbekiston», P.Rahimov musiqasi*

Dastur mazmuni: bolalarni musiqa xarakteriga mos harakatlarni ijro etishga o‘rgatish. Qo‘llarini yengil, mayin harakat qildirib, aniq va tartib bilan bajarishga erishish.
12 nafar qiz qatnashadi. Qizlar to‘rttadan to‘rt qator bo‘lib, qo‘llarida gullar bilan mehmonlarga qarab turadilar.

I QISM. A

1-taktga, tizzalarini ozgina bukib, qo‘llari yuqorida, mayin harakat bilan o‘ng yonga uzatadilar.
2-taktga, dastlabki harakatni chap yonga takrorlaydilar, 3 — 4-taktlarda, 1 — 2-taktlardagi harakat takrorlanadi, 5 — 8-taktlarda, tizzalarini ozgina bukib, xar taktga «Ko‘llarimiz chiroyli» harakatini ko‘krak oldida bajaradilar. 1 -qismdagi musiqaga 1 — 8-taktdagi harakatlar takrorlanadi.

II QISM. B

9 — 12-taktlarda, 2 — 3-qatordagi qizlar bir tizzaga cho‘kkalaydilar,1-qatordagi qizlar 2-qatordagi qizlarning, 4-qatordagi qizlar 3-qatordagi qizlarning oldidan yengil yugurishib, aylanib, o‘z joylariga kelib to‘xtaydilar.
13-taktga, hamma qizlar turgan holatda tizzalarini bukib, bir deganda, o‘ng qo‘lni yuqoriga ko‘tarib, chap qo‘lni orqaga uzatadilar.
14-taktga, dastlabki harakat chap qo‘lni yuqoriga ko‘tarib takrorlanadi

15 — 16-taktlarda, 13 — 14-taktlardagi harakat takrorlanadi. 2-qismdagi musiqaning takrorlanishiga, 9 — 12-taktlarda, 1 — 4 qatordagi qizlar bir tizzaga cho‘kkalaydilar. 2-qatordagi qizlar 1-qatordagi qizlarning oldidan yengil yugurib, aylanib, o‘z joylariga kelib to‘xtaydilar. 13 — 16-taktlardagi harakatlar takrorlanadi.

III QISM. V

17 — 24-taktlarda, birinchi qatordagi qizlar 4-qatordagi qizlarning ketidan, 3-qatordagi qizlar 2-qatordagi qizlarning ketidan yengil yugurib, ikkita doira hosil qiladilar (tashqaridagi doira o‘ngga qarab, ichkaridagi doira chapga qarab harakat qiladi).

III qismdagi musiqa takrorlanganda doiradagi qizlar doira yo‘nalishini o‘zgartirib harakat qiladilar.

IV QISM. G

25 — 26-taktlarda, doirani kichik qilib qo‘llarini asta-sekin yuqoriga ko‘tarib, yengil yuguradilar.

27 — 23- taktlarda, qo‘llarini asta-sekin tushirib, joylariga qaytadilar (katta doira tuzib).

29 — 32-taktlarda, ikkinchi qismdagi 13 — 16-taktlardagi harakatlar takrorlanadi.

4-qismdagi musiqaning takrorlanishiga 25 — 28-taktlardagi harakatlar takrorlanadi.

29 — 30-taktlarda, turgan joylarida qo‘llarini ko‘krak oldida turib aylanadilar.

31 — 32-taktlarda, o‘rtaga yengil, yugurib to‘planadilar. Ichki doiradagilar turgan holatda, tashqi doiradagilar bir tizzada o‘tirgan holatda guldastani tasvirlab turadilar.

Metodik ko‘rsatmalar: raqsni o‘rganishdan avval katta va kichik doira tuzishni qaytarish lozim. Oldindan boshqaruvchilarni tanlab olish kerak, so‘ng qatorlardan ikkita doira tuzish o‘rgatiladi.

«Juftlik raqs»

(tayyorlov guruhi uchun) «Chertmak», o‘zbek xalq kuyi

Dastur mazmuni: musiqaning qismlariga qarab, bolalar-ning mustaqil harakat qilish malakasini mustahkamlash.

Bolalar doirada juft bo‘lib, qo‘l ushlashib turadilar. O‘g‘il bolalar chap tomonda, bo‘sh qo‘llari belda, qizlar o‘ng tomonda, bo‘sh qo‘llari bilan ko‘ylak etagini ushlagan holda turadilar. Musiqaning birinchi qismiga, har taktda, o‘ng oyoqni to‘pillatib, doira bo‘ylab harakat qiladilar.

8-taktda, bir-birlariga o‘girilib to‘xtaydilar.

Musiqaning ikkinchi qismida o‘g‘il bolalar ko‘krak oldida chapak chalish bilan birga, o‘ng oyoqni har taktga to‘pillatadilar. O‘g‘il bolalar «To‘pni yuqoriga ot» harakati bilan, qizlar har taktga o‘ng oyoqni to‘pillatib, «Maysani sila» harakatini bajaradilar. Musiqaning 3-qismiga o‘g‘il bolalar bir tizzasini bukib o‘tirishadi, qo‘llari belda, yelka harakatini bajaradilar. Qizlar bir vaqtda o‘ng oyoqni to‘pillatib, bosh yuqorisida chapak chalib, o‘z juftlarini aylanadilar.
Musiqaning 1-qismidagi harakatlar takrorlanadi.
Musiqaning 2-qismidagi harakatlar takrorlanadi.
Musiqaning 3-qismiga qizlar bir tizzalarini bukib, dutor chalish harakatini bajaradilar. O‘g‘il bolalar har taktga o‘ng oyoqlarini to‘pillatib, «Arqonni tort» harakati bilan o‘z juftlarini aylanadilar.

Metodik ko‘rsatmalar: raqsni o‘rgatishdan avval bolalar bilan musiqa mashg‘ulotida «Koptokni yuqoriga ot», «Maysani sila», «Arqonni tort» harakatlarini mashq qildirish lozim. Raqs bayram ertaliklarida ijro etiladi.

«Sho‘x qizlar raqsi»

«Yallama yorim», o‘zbek xalq kuyi

Dastur mazmuni: bolalarda yengil hakkalab sakrashni mustahkamlash. Bolalarni musiqa xarakteriga va qismlariga qarab harakat qila olishga o‘rgatish.
8 yoki 10 nafar qiz qatnashadi. Qizlar o‘ng yon devor oldida markaziy devorga qarab turadilar.

I QISM A

I-1-4-taktlarda, ko‘ylak etagini ushlagan holda qizlar hakkalab, sakrab devor oldida, mehmonlarga qarab bir qator bo‘lib to‘xtaydilar.
5 — 8-taktlarda, qizlar oldinga ko‘krak oldida chapak chalib, hakkalab kelib to‘xtaydilar.
9- 10-taktlarda, o‘ng yonga, «Yonimga kel» harakatini har taktga o‘ng oyoqni to‘pillatib bajaradilar.
II-12-taktlarda, 9-10-taktlardagi harakat chap yonga takrorlanadi.
13-taktda, ko‘krak oldida chapak chalib, o‘ng oyoqni to‘pillatadilar.
14-taktda, «Qo‘llarimiz chiroyli» harakatini o‘ng oyoqni to‘pillatib bajaradilar.
15 — 16-taktlarda, sakrab, o‘ng tovonni o‘ng yonga qo‘yib, dutor chalish harakatini bajaradilar.
17 — 18-taktlarda, harakatlar chap tovonni qo‘yib, chap yonga dutor chalish harakati bajariladi.
Musiqaning 15 — 18-taktlardagi takrorlanishiga dastlabki 15 — 18-taktlardagi harakat takrorlanadi.

II QISM. B

I- 4-taktlarda, qizlar teng bo‘linib, o‘ng va chap yon devorlar oldida hakkalab, ikki qator bo‘lib to‘xtaydilar.

5 — 8-taktlarda, bir-birlariga qarab, ko‘krak oldida chapak chalib, bir vaqtda hakkalab, yuzma-yuz to‘xtaydilar.

9-taktga, qizlar bir-birlariga qarab, «Gulni hidla» harakatini o‘ng oyoqni to‘pillatib bajaradilar.

10-taktga, bir-birlaridan o‘girilib, «Gulni ber» harakatini o‘ng oyoqni to‘pillatib bajaradilar.

II- 14-taktlarda, 9 — 10-taktlardagi harakat, 1-qismdagi 15 — 18-taktlardagi harakatlar takrorlanadi.

III QISM. V

I qismdagi harakatlar takrorlanadi. Musiqaning tugallanishida qo‘llarini yuqoriga ko‘tarib, «Hey» deb raqsni tugatadilar.

Metodik ko‘rsatmalar: musiqa mashg‘ulotlarida raqs qismlarga bo‘linib o‘rgatiladi. Qizlarni yelkama-yelka, juft holda «Gulni hidlab ber» harakatini mashq qildirish lozim. So‘ng raqs o‘rgatiladi.

«Doiralar bilan raqs»

«Ufor», o‘zbek xalq kuyi

Dastur mazmuni: bolalarning quvnoq musiqa ohanglari ostida harakat qilish malakalarini mustahkamlash. Joyida turgan holda bir oyoqda hakkalab sakrashni o‘rgatish.

Raqsda 8 nafar qiz qatnashadi. Qizlar ketma-ket, o‘ng yon devorlar oldida markaziy devorga qarab turishadi. Yuqorida o‘ng qo‘llari bilan doira, chap qo‘llari bilan ko‘ylaklari etagini ushlaydilar.

1 — 4-taktlardagi musiqa takrorlangan holda, qizlar hakkalab sakrab, markaziy devor oldidan ikki qatorga bo‘linib, yon devor bo‘ylab harakat qiladilar. Yakka raqqosa o‘rtaga yengil yugurib chiqib, to‘xtaydi.

5 — 8-taktlardagi musiqa takrorlangan holda, yakka raqqosa o‘ng tovonini o‘ng yonga qo‘yadi va bir vaqtda doirani yuqorida shiqillatadi (5-taktga).

6-taktga, oyoqni juftlashtirib, doirani orqaga uzatib shiqillatadi. Bir vaqtda qatorlarda turgan qizlar ko‘krak oldida doirani chalib, o‘ng oyoqni har taktga to‘pillatib uradilar.

7 — 8-taktlarda, 5 — 6-taktdagi harakat takrorlanadi. 7 — 8-taktlardagi musiqa takrorlangan holda, qatorlarda turgan qizlar yakka raqqosa bajargan harakatlarni takrorlaydi. Yakka raqqosa esa qizlarga qarab ko‘krak oldida o‘ng oyoqni to‘pillatib, doira chalib turadi.

17 — 18-taktlardagi musiqa takrorlangan holda, yakka raqqosa o‘ng oyoqda hakkalab, doirani ko‘krak oldida urib chaladi (17-taktga). 18-taktda doirani orqaga uzatib, o‘ng oyoqcha hakkalab urib chaladi.

19 — 20-taktlarda, 17 — 18-taktlardagi dastlabki harakatlar takrorlanadi. Qatorlarda turgan qizlar bir vaqtda o‘ng oyoqni to‘pillatib, ko‘krak oldida doirani urib, har taktda chaladilar.

21 — 24-taktlarda, qatorlarda turgan qizlar yakka raqqosa bajargan 17 — 20-taktlardagi harakatlarni takrorlaydi. Yakka raqqosa bir vaqtda qizlarga qarab, o‘ng oyoqni har taktda to‘pillatib, ko‘krak oldida doira chaladi.

25 — 26-taktlarda, yakka raqqosa qizlar bilan ko‘krak oldida doirani chalib, hakkalab sakrab, markaziy devor oldida bir qator bo‘lib mehmonlarga qarab to‘xtaydilar. Musiqa tugallanishi bilan doirani yuqoriga ko‘tarib, o‘ng yonga o‘ng oyoq tovonini qo‘yib, chap qo‘llari bilan ko‘ylak etagini ushlagan holda doiraga qarab qoladilar.

Metodik ko‘rsatmalar: raqsni o‘rgatishdan oldin, musiqa mashg‘ulotlarida raqsni doirasiz, so‘ng doira bilan o‘rgatish lozim.

«Chitti gul» lapari

(katta guruh uchun) *O‘zbek xalq kuyi*

Dastur mazmuni: bolalarni musiqaning xarakteri va qo‘shiq so‘zlariga qarab mustaqil harakat qilishga o‘rgatish.

Bolalar doirada juft bo‘lib, bir-birlariga o‘girilib turadilar. O‘g‘il bolalar doira ichkarisida, qizlar tashqarisida qo‘shiqning kirish qismini tinglagach, 1-bandi, 1 — 4-taktlarda, I chorakka, ko‘krak oldida chapak chaladilar. P chorakka, ko‘krak oldida bir-birlarining kaftlariga uradilar.

Naqarot. 5-taktda oddiy qadam bilan joylarini almashtirib oladilar.

6-taktda, I chorakka ko‘krak oldida chapak chalib, TT chorakka ko‘krak oldida bir-birlarini kaftlariga uradilar. Naqarotning takrorlanishiga 5 — 6-taktlardagi dastlabki harakatlar takrorlanadi.

II bandiga, bolalar qo‘llarini beliga qo‘ygan holda, har taktga o‘ng va chap tomonga tizzalarini bukib, o‘tirib-turish harakatini bajaradilar.

Naqarotdagi harakatlar takrorlanadi.

III bandida, 1 — 2-taktlarda qo‘llari belda, oyoqlarini birin-ketin to‘pillatadilar.

3 — 4-taktlarda, o‘ng qo‘llarining kafti pastga qaragan holda, peshanalariga qo‘yib, o‘ngga qaraydilar. Naqarotdagi harakatlar takrorlanadi.

IV bandida, 1 — 2-taktlarda kaftlari yuqoriga qaratilgan holda, o‘g‘il bolalar qo‘llarini oldinga uzatadilar. 3 -4-taktlarda qizlar qo‘llarini o‘g‘il bolalarning qo‘llari ustiga qo‘yadilar.

Naqarotdagi harakatlar takrorlanadi.
V bandida, 1 — 4-taktlarda «Qo‘llarimiz chiroyli» harakatini har taktga — o‘ng oyoqni to‘pillatib bajaradilar.
Naqarotdagi harakatlar takrorlanadi.
VI bandida, 1 — 4-taktlarning har taktida ko‘krak oldida chapak chalib, o‘ng oyoqni bir vaqtda to‘pillatadilar.
Naqarotdagi harakatlar takrorlanadi.

Metodik ko‘rsatmalar: qo‘shiq harakatlari musiqa mashg‘ulotida o‘rgatiladi. Bolalar qo‘shiq so‘zlarini yod olgandan so‘ng, harakatlarni o‘rgatish lozim.
Raqsda 6 nafar qiz qatnashadi. Qizlar uchtadan ikki qator bo‘lib, ikki tizzada mehmonlarga qarab o‘tiradilar. Qo‘llarida paxta novdasi, boshlarini oldinga egib, qo‘llarini pastga qilib turadilar.
I- 2-taktlarda, qo‘llarini asta-sekin yuqoriga ko‘taradilar (paxta ochilishini tasvirlaydilar).
3-taktga, qo‘llarini yuqoriga, o‘ng tomonga nozik harakat bilan uzatadilar.
4-taktga, qo‘llarini chap tomonga mayin uzatadilar.
5 — 7-taktlarda, har taktga «Qo‘llarimiz chiroyli» harakatini bajaradilar.
8-taktga boshlarini egib, qo‘llarini pastga tushiradilar (paxta yopilishini tasvirlaydilar).
1-qismdagi musiqaning takrorlanishiga 1 — 8-takt harakatlari o‘rnida turgan holda harakatlarni takrorlaydilar.
9 — 12-taktlarda, qizlar doira tuzib, yengil yugurib, harakatni paxta novdalarini yuqoriga ko‘targan holda bajaradilar.
13 — 15-taktlarda, har taktga «Qo‘llarimiz chiroyli» harakati o‘ng oyoqni to‘pillatib bajariladi.
16-taktga, yengil yugurib, o‘rtada kichik doira hosil qilinadi. Chap qo‘llar birlashtirilib, o‘ng qo‘llar yonga uzatiladi.
II qismdagi musiqaning takrorlanishiga, 9 — 10-taktlarda kichik doira bo‘lib, birga yengil yugurishadi.
3 — 15-taktlarda, har taktga «Qo‘llarimiz chiroyli» harakati o‘ng oyoqni to‘pillatib bajariladi.
16-taktga, kichik doira tuzib, ikki tizzaga o‘tirib, qo‘llar yuqoriga ko‘tariladi (ochilgan paxta tasvirlanadi).
Metodik ko‘rsatmalar: paxta novdalari bilan erkin harakatlar bajarishni musiqa mashg‘ulotida o‘rgatib borish darkor. Qo‘llarni erkin, yelkani bo‘sh tutishga e’tibor berish lozim. Bolalarga katta va kichik doira tuzish mashqi raqs o‘rgatishdan avval o‘rgatiladi.

VII. ATAMALAR IZOHLI LUG‘ATI

Maktabgacha ta’lim – maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma’naviy me’yorlarni shakllanishi, bola tomonidan hayotiy va ijtimoiy tajriba olishini ko‘zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayondir;

Bola kompetensiyasi –ma’lum bir yosh davriga xos bo‘lgan vazifalarni maqsadli bajarish uchun yetarli bo‘lgan bolaning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda qadriyatlari;

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv – pedagogning butun diqqat-e’tiborini bola shaxsining yaxlitligiga qaratishni, uning nafaqat aql-zakovati, fuqarolik mas’uliyati hissi, balki emotsional, estetik, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish haqida g‘amxo‘rlik qilishga yo‘naltiradigan yondashuv.

Musiqa rahbari — MTT jamoasi tarkibiga kiradigan pedagogik xodim, musiqa faoliyatining tashkil etishning turli shakllari va ko‘rinishlaridan foydalanib, tarbiyalanuvchilarning musiqaga bo‘lgan iqtidorlarini rivojlantirish, estetik didini shakllantirish ishlari bilan shug‘ullanadi. Musiqa rahbari bitta yoki bir nechta musiqa asboblarini chalishni bilishi, amalga oshiriladigan pedagogik faoliyat yo‘nalishlarini tarbiyalanuvchilarning individual va yosh xususiyatlarini, ularning ijodiy qobiliyatlarini hisobga olgan holda belgilashi lozim.

Musiqa tarbiyasi — estetik tarbiya sohalaridan biri; Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida amalga oshiriladigan pedagogik jarayon. Bolada ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish maqsadida uning musiqa madaniyatini tarbiyalash va musiqaviy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus tashkil etilgan pedagogik jarayon. Musiqa tarbiyasining vazifalari: bolaga musiqani sevish va tushunishni o‘rgatish, uning musiqani eshitish qobiliyatini rivojlantirish, unga eng sodda ijrochilik ko‘nikmalarini singdirish.

Musiqa faoliyati - musiqa vositasida rivojlantirish jarayonida musiqa faoliyatining barcha turlarini qo‘llash. Bolalar musiqa faoliyati turlari: musiqani, uning harakati, o‘ziga xos ohanglari, obrazliligi va betakror musiqa san’atini «kuzatish», ya’ni idrok qilish; musiqani tinglash, faol musiqa amaliyoti (qo‘shiq aytish, musiqiy cholg‘ularini chalishdan foydalangan holda); musiqani tinglash va ijro etish bilan bog‘liq bo‘lgan bolalar ijodiyoti. MTTda musiqa faoliyatini tashkil etish turlari: frontal musiqa mashg‘ulotlari (kompleks, mavzu bo‘yicha, yetakchi (dominant), an’anaviy); guruhiy va individual musiqa mashg‘ulotlari (ijodiy, musiqani eshitish iqtidori va ovozni rivojlantirish, raqs harakatlarini

o‘zlashtirish, bolalarga musiqa asboblarini chalishni o‘rgatish); musiqa zalidan tashqarida tashkil etilgan musiqa muhiti (mustaqil musiqa faoliyati, musiqa sadolari ostida uyg‘onish, musiqali hordiq, ertalabki badantarbiya, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari); bayram ertaliklari va badiiy kechalar (mavsumiy, mavzuviy, folklor, o‘yinga asoslangan).

Musiqaga bo‘lgan qobiliyatni rivojlantirish — bolaning tabiiy qobiliyatiga tayangan holda. Unda musiqa madaniyatining asoslarini, ijodiy faollikni shakllantirish orqali qobiliyatini rivojlantirish jarayoni.

Tashkilotchilik qobiliyati – pedagog tomonidan ta’limiy va tarbiyaviy jarayonlarni ilmiy-nazariy, metodik va hissiy jihatdan to‘g‘ri tashkil etilishini anglatuvchi sifat.

Orkestr – (yun. Orchestra — qadimgi yunon teatri sahnasi oldidagi maydoncha) — turli cholg‘ularda chalib, ijrochilarning ushbu guruhi uchun yozilgan musiqa asarini birgalikda ijro etuvchi sozandalarning katta jamoasi. Musiqiy cholg‘ularning tarkibiga ko‘ra orkestrlarning turlari: simfonik – to‘liq tarkibdan iborat, torli – kamonli cholg‘ular, damli — yog‘och va mis damli cholg‘ular, shovqinli — urma-zarbli cholg‘ular, yoki estrada-simfonik – yuqorida sanab o‘tilgan cholg‘ularga elektr-cholg‘ular, ya’ni gitaralar, sintezatorlar kabilarning qo‘shilishi asnosida.

Individual yondashuv – ta’lim beruvchining guruhdagi har bir bolaning faol harakat va dam olish paytida barcha ehtiyojlarini e’tiborga olish zarurligini anglatadi. Bu guruhdagi barcha material va jihozlar, umuman o‘qitish muhiti har bir bolaning rivojlanishiga xizmat qilishini hamda mo‘ljallanayotgan faoliyat turlari bolalar rivojlanishidagi farqni e’tiborga olinishini bildiradi.

Kuzatuvchanlik — kishining narsa-hodisalar xususiyatlari, jumladan, ularning tashqaridan unchalik ko‘zga tashlanmaydigan, e’tibor tortmaydigan jihatlari hamda ro‘y bergan o‘zgarishlarni tez payqay bilish va to‘g‘ri aniqlay olish qobiliyati. K.ning shakllanishi ko‘p jihatdan shaxsning qiziquvchanligiga bog‘liqdir.

Ko‘rgazmali vositalar – ta’limning ko‘rgazmali vositalari; tabiat, jamiyat, narsa, hodisalarning tabiiy yoki badiiy ifodasi.

Ko‘rgazmalilik – ta’limning muhim prinsipi va Musiqiy faoliyatlarda didaktik vositalardan foydalanish metodikasini ifodalovchi atama.

FOYDALANILGAN VA TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonuni. O‘RQ-595-son, 2019-yil 16-dekabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-112-son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. 802-son, 2020-yil 22-dekabr.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarining uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida” qarori. 867-son, 2024-yil 20-dekabr
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-iyuldagi “Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining kasbiy standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 423-son qarori.
7. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2025-yil, 29-avgustdagi “Maktabgacha ta’lim tashkiloti va pedagoglarning ish hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida” buyrug‘i 323-son buyruq.
8. Grosheva I.V., Mirziyoeva Sh.Sh., Yevstafeva L.G., Maxmudova D.T., Nabixanova Sh.B., Pak S.V., Nazarova V.A., Isxakova M.R., Abdunazarova N.F. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi (takomillashtirilgan ikkinchi nashr) Toshkent 2022-yil.
9. To‘xtaxodjaeva M.Maktabgacha ta’lim muassasalarida bayramlar va ko‘ngilochar tadbirlar .Toshkent: Navro‘z, 2019
10. Abdullaeva S.Maktabgacha ta’lim muassasalarida bayram ssenariylarini tuzish metodikasi .Toshkent, 2021
11. Norqulova T.Maktabgacha ta’limda sahnaviy faoliyat .Toshkent: Fan, 2018
12. Soliyev N. Musiqa savodi alifbosi. G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot, 2003-yil.
13. Namozova D.T., Nosirov D.T. “Maktabgacha ta’lim muassasalarida musiqiy ta’lim metodikasi” Qo‘qon: 2006-yil.
14. Soipova D. Musiqa o‘qitish nazariyasi va metodikasi. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2009-yil.

15. Radinova, O.P. Muzыkalnoe vospitanie doshkolnikov/ O.P.Radыnova, A.I.Katinene // M. : Akademiya Moskva, 1998. 240 s.

16. Davыdova M.A. Muzыkalnoe vospitanie v detskom sadu. Srednyaya, starshaya, podgotovitelnaya gruppa. – M.: VAKO, 2006 god.

17. Gogoberidze A.G. Teoriya i metodika muzыkalnogo vospitaniya detey doshkolnogo vozrasta – M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2005 g.

18. www. uzedu.uz

19. www.mdomoi.uz